

касби ёрдамида ўзига ҳам, бошқаларга ҳам катта фойда келтиради. Шунинг учун касбий маҳоратни шакллантириш, тарбиялашга ва ниҳоят уни такомиллаштиришга интилиш, уни керакли маълумотлар, ахборот(билим)лар, малакалар билан тўлдириб бориш шу куннинг, қолаверса таълим ислохотларининг долзарб масаласидир.

Мазкур масаланинг долзарблигини педагогик назария ва тажриба яна қўйидаги ҳолат билан исботлайди: педагогик изланиш, таълимий ўқиш, ўқитишнинг меъёрий ҳужжатлари, дарсликлар, қўлланмалар, ахборот воситалари, қанчалик мукаммаллашган бўлмасин, педагогик амалиёт, таълим - тарбия ишларининг муваффақияти охир оқибатда педагог шахсига, унинг касб – кор маҳоратига боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Монахов В.М. Аксиоматический подход к проектированию педагогические технологии. Педагогика. 1997г. №6.
2. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши Насаф, 2000.
3. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. Тошкент “Молия”- 2003.
4. Тожиев., Салохитдинов Р., Баракаев М., Абдалова С. Таълим жараёнида замонавий ахборот технологиялари. – Т.: 2001.
5. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2006 й.
6. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: 1999 й.
7. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Т., Жумабоева Ф.А. Олий ўқув юртларида ўқитишнинг замонавий усуллари. – Т.: 2002.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Saidova Mohinur Jonpo‘latovna

BuxDUPI Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot texnologiyalarining mazmuni, boshlang‘ich sinf matematika o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan axborot texnologiyalar, ularning turlari va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Dars, masala, matematika, axborot texnologiya, boshlang‘ich sinf.

Jamiyatda ta‘lim barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, xalqaro ta‘lim konsepsiyasida «butun hayot davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta‘lim tizimida pedagoglar, jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.

Dunyo miqyosida ta‘lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish, ularning didaktik asoslarini o‘rganib, yangi usul, vositalarni ishlab chiqish metodikasini va metodologik asoslarini takomillashtirish, o‘quvchilardagi ijodiy bilish faoliyatining reproduktiv va produktiv darajalarni modellashtirish yuzasidan qator yangi usullar va g‘oyalarni ishlab chiqish zarur. Mazkur yangi g‘oya, yangi usullar natijasida o‘quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlash, atrofda voqeiylikka ongli munosabatda bo‘lish, dahldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning moddiy-texnika bazasi yaratildi, me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Intellektual salohiyatli o‘quvchini tarbiyalashda ta‘lim tizimining rolini kuchaytirish boshlang‘ich ta‘limning yuqori sifatini ta‘minlab, ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratish bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda respublikamizning ta‘lim sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning me‘yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga integratsiya

qilish, bilish faoliyatini shakllantirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Buni esa aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni, salohiyatli, metodik jihatdan kuchli qilib tarbiyalashdan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim jarayonida natijaviylikka erishish bo'yicha o'quvchilarning aqliy va ijodiy tafakkurini o'stirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish" [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matematika fanini puxta o'rgatish uchun axborot ta'lim resurslari, ijodiy materiallar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, fanga bo'lgan qiziqishni o'stirish dolzarb masalalardan hisoblanadi [2].

Axborot texnologiyalarining boshlang'ich sinf matematika darslarida foydalanish va uni darslarda joriy etishda quyidagi bir qator muammolar o'z yechimini topishi kerakligi ta'kidlanadi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematikani o'rgatishda o'ziga xos innovatsion texnologiya turi bu - axborot texnologiyasi ekanligi;

Boshlang'ich sinf matematika darslari jarayonida har bir innovatsion texnologiyalarning o'z o'rnini bor. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarning bir turi sanalgan axborot texnologiyasi - o'quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini o'stirish uchun xizmat qiladi. Axborot texnologiyasi interfaol metodlar, didaktik o'yinlardan farqli o'laroq, barcha matematik tushuncha va mavzularni ekranda ko'rib, fikr yuritishda va tahlil qilish uchun yaxshi samara beradi. Matematika darslari axborot texnologiyalari va ularning turlaridan foydalanish eng yaxshi vosita ekanligi qayd etildi.

2. Boshlang'ich sinf matematika darslaridan axborot texnologiyalari orqali o'tishda ehtiyoj seziladigan mavzular bazasini shakllantirish lozim; Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish belgilangan mavzu yuzasidan chuqur bilim olish, tasavvur, tushuncha hosil qilish uchun zamin yaratadi. Ayniqsa, kasr va harakatga doir masalalarni tushuntirishga doir axborot ta'lim resursini shakllantirish bolalarda mavhumlikdan aniqlikka borish uchun yo'l ochadi, qolaversa, bilimlarini mustahkamlashga, mavzuni chuqurroq tahlil etishga, keyinchalik yuqori sinf mavzularni ham qiyinchiliklarsiz o'zlashtirish uchun poydevorni mustahkamlashga asos bo'la oladi.

3. Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf matematika darslarida foydalanish uchun uni didaktik vositalari tizimini ishlab chiqish zarur;

4. Boshlang'ich sinf matematika darslari jarayonida yaxshi samara bera oladigan axborot texnologiya turlarini ajrata olish va undan foydalanishni tashkillashtirish.

O'qituvchi boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan qo'llashda didaktik vositalardan foydalanish uchun maxsus ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.




Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallar quyidagi muammolarni hal etishi zarur:

1. Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallarni tanlash va ularni o'qitish samaradordigini oshirishda saralangan materiallardan nazariy (ma'ruza) va amaliy mashg'ulotlarda qanday an'anaviy, noan'anaviy metodlardan hamda shakllardan foydalanishni aniqlash.

2. Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallar o'quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlashlarini, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni, mantiqiy mulohaza yuritishlarini hisobga olish.

3. Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga samarali usulda o'qitish metodikasini ishlab chiqish (1-jadval).

1-jadval

T/r	Mavzular	Tayanch soʻzlar	Fanlar bilan aloqadorlik	Kasblar	Sinov savollari
.	Bir xonali sonlar	Son, bir xil, har xil, katta, kichik, teng, shakl, uchburchak, aylana, oval	Fizika, ona tili, mehnat, chizmachilik.	Tikuvchi, sotuvchi, oʻqituvchi, shifakor	1. Bir xil va har xil narsalarni qanday farqlash mumkin? 2. Qanday shakllarni bilasiz?. 3. Shakllar soni nechta? 
.	Sonlarni taqqoslash	Katta, teng, kichik, taqqoslash, koʻp, kam, uzun, qisqa, natija	Geografiya, iqtisod, informatika, kimyo, zoologiya.	Sotuvchi, hisobchi, arxeolog, tikuvchi.	1. Predmetlar orqali qaysi son kattaligini topa olasizmi?  2. Rasm asosida masala tuza olasizmi? Qoʻshiluvchilarni taqqoslay olasizmi? 

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari boshlangʻich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallaridan oʻquv jarayonida foydalanishi deganda quyidagi maqsadlar tushuniladi:

1. Tanlangan materiallar matematika fanining oʻquv rejasi va fan dasturi talablariga mos kelishi, Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining qiynalmasdan oʻzlashtirib olishlariga yordam berishi;
2. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni, abstrakt tafakkurni shakllantirish;
3. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni oʻstirish;
4. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarda abstrakt tafakkurni, mantiqiy mushohada yuritishni rivojlantirish;

5. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarni egallagan nazariy bilimni qiynalmasdan amaliyotda qoʻllay bilishi;


6. Boshlangʻich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallardan oʻquv jarayonida foydalanish maqsadli va rejali asosda boʻlishi, zaruriy pedagogik vaziyatni aniqlangan holda tanlanishi[3].

Boshlangʻich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallarga quyidagi didaktik talablarni qoʻyish mumkin:

1. Tanlangan materiallarning mazmuni didaktik va metodik talablarga javob berishi kerak.
2. Tanlangan materiallar mazmuni sodda, qisqa va tugallangan matnda ifodalangan boʻlishi zarur.
3. Tanlangan materiallar mazmuni va ulardagi faktlar haqiqiy boʻlishi lozim.
4. Tanlangan materiallar va sinov savollari aniq hamda tushunarli boʻlishi darkor.

Masala yechish jarayonida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari albatta qaysidir metod, usul, va vositalardan foydalanadi. Metod tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biri. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining koʻpchiligida metodlar boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisi va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyatlari

usullari bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, ko'nikma va malakalarga erishiladi [4]. O'quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi, deb tavsiflanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich sinf matematika o'qitish jarayonida qator metod, usul va vositalardan foydalanish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida tanlash tavsiya etiladigan metod, usul vositalar.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida masala ustida ishlashda yaxshi natijaga erishish uchun yuqorida keltirilgan metodika asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi tavsiyalarini hisobga olish va shunga doir maxsus metodika ishlab chiqishi lozim.

1. Masalaning turlari, sodda masalani murakkab masalaga aylantirish, masala rejasi ustida ishlash va qisqacha shartini tuzish jarayonidagi kamchiliklarini bartaraf etishning samarali usuli axborot vositalardan foydalanish va ularning eng maqbulini tanlay olish.

2. O'quvchilarda dastlabki masala haqidagi tasavvurni shakllantirish uchun $\square - \square = \square$, $\square + \square = \square$ ko'rinishga mos masalalarni axborot texnologiyalarida harakatli rasmlar orqali tushuntirish metodikasini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'rgatish.

3. Dars davomida sonni ulushini, ulushga qarab sonni topish, sonni bir necha ulushini topishga doir masalalarni o'rgatishda shakllanishi ko'zda tutilgan kompetentlik asosida samarali ishlar tizimini ishlab chiqish va undan foydalanishni o'rgatish.

4. Ulush va kasrga doir masalalarni o'quvchilar oson tushunishlari uchun axborot texnologiyalaridan keng foydalana olish va o'rgangan bilimlarini amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratish kerak.

5. Harakatga doir masalalar ustida ishlashning metodikasiga keng e'tibor qaratish, qisqa yozuv ko'rinishlarni to'g'ri tanlay olish, axborot texnologiyalari orqali tezlik, masofa va vaqtni topa olish, turli ijodiy topshiriqlar orqali bu ko'nikmani malakaga aylantirishni o'rgatish lozim;

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari doimo yurt va uning ravnaqi uchun xizmat qiladigan yoshlarni tarbiyalaydi. Shunday ekan, o'qitiladigan va o'rgatiladigan har bir fan va elementga alohida e'tibor berish lozim.

Zero, masalani to'g'ri va aniq ishlashga o'rganish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan asosiy vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi F- 5024. 2017-yil.
2. Kulenov I.B. Multimediali o'qitish tizimlarini yaratish texnologiyasiga bo'lgan talablar. "Fizika, matematika va informatika" jurnali. 2009. -№2.
3. Saidova M.J. Ta'limda multimedia texnologiyalardan foydalanish. Darslik. 2022-yil. 35-b.
4. Saidova M.J Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. Buxoro. 2020-yil. 46-b.